

MUHAMMAD RIZO OGAHIY TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI NIGOHIDA

*Toshkent davlat sharqshunoslik
Yaponshunoslik fakulteti
yapon-ingiliz guruhi 2-bosqich
talabasi Ergashov Shohijahon
Ilmiy rahbar:PhD.Ikromov.Sh*

Anatatsiya: *Ushbu maqola orqali Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ogahiyshunoslikni rivojlantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlar va yosh Ogahiyshunoslarni qo‘llab quvvatlashi aks ettirilgan.*

Abstract: *This article reflects the efforts of Tashkent State University of Oriental Studies to develop awareness of Agahi and support young researchers*

Kalit so‘zlar: *”Ogahiy stepindiyasi”, ”Xalqaro Ogahiyshunoslik kengashi”, ”Ogahiy ijod maktablari”.*

Key words: *”Agahi scholarship”, ”International Agahi Studeis Council”, ”Agahiy school”.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 may kuni “Adiblar xiyoboni”ga tashrifi chog‘ida adabiyot tarixida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasiga “Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar tarbiyasi uchun namuna” yo‘nalishida berilgan topshiriqlarni amalga oshirish maqsadida yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti qoshida Xalqaro Ogahiyshunoslar kengashi tashkil qilindi. Uning a‘zolar.

1 Omonov Quadratulla Sharipovich Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor Filologiya fanlari doktori, professor Kengash raisi

2 Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Rektori Filologiya fanlari nomzodi, dotsent a‘zo

3 Muhammad Ali Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tarjimashunoslik kafedrasida professor, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Filologiya fanlari nomzodi, professor a‘zo

4 To‘xliyev Boqijon Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Mumtoz filologiya kafedrasida professor Filologiya fanlari doktori, professor a‘zo



5 Sodiqov Qosimjon Pozilovich Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Mumtoz filologiya kafedrasida professori Filologiya fanlari doktori, professor a'zo

6 Jabborov Nurboy Abdulhakimovich Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti kafedra mudiri Filologiya fanlari doktori, professor a'zo

7/ Xusayn Baydimer Erzurum Otaturk universiteti professori Filologiya fanlari doktori, professor a'zo

8. Fayziyev Xurshid Turg'unovich Temuriylar tarixi muzeyi direktori Tarix fanlari nomzodi a'zo

9. Nafas Shodmonov Qarshi davlat universiteti kafedra mudiri Filologiya fanlari doktori, professor a'zo

10. Alimbekov Adham Kamolovich Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti XShMA kafedrasida dotsenti Filologiya fanlari nomzodi, dotsent a'zo

11. Xaliyeva Gulnoz Iskandarovna Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ilmiy loyiha rahbari Filologiya fanlari doktori, professor a'zo

12. O'rozboyev Abdulla Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy xodimi Filologiya fanlari doktori a'zo

13. Ulfat Abdurasulov Avstriya fanlar akademiyasi xodimi Tarix fanlari nomzodi a'zo

14. Nuryog'di Toshev O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi Tarix fanlari nomzodi a'zo

15. Qalandarov Mirzajon Sitamatovich Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ilmiy bo'lim boshlig'i Katta o'qituvchi a'zo

16 Ochilov Ergash O'zRFA O'zbek tili adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi filologiya fanlari nomzodi a'zo

17. Matyakubova Madina Xabibullayevna Xiva Ogahiy ijod maktabi yetakchi o'qituvchisi filologiya fanlari nomzodi a'zo

18. Nazirova Xilola O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi ilmiy xodim Kengash kotibi

Xalqaro Ogahiyshunoslar kengashining asosiy vazifalari

1) Hazrat Ogahiy ijodi bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borayotgan olim va tadqiqotchilarni bir ilmiy jamiyat atrofida birlashtirish va ularni ogahiyshunoslik yo'nalishida olib borayotgan ishlarini muvofiqlashtirish.

2) Ogahiyning hayot va ijod yo'li, asarlari, XIX asar Xiva xonligi bilan bog'liq tadqiqotlar, adib qo'lyozmalarining tahlili va tabdili bo'yicha tadqiqot mavzulari bazasini shakllantirish.



3Ogahiy ijodi bo'yicha yaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari hamda nashr etilgan adib asarlarining elektron bazasini shakllantirish, kelgusida “Ogahiy qomusi”ni yaratish.

4Ogahiy tug'ilgan kun munosabati bilan muntazam 17-dekabrda Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini tashkil etish, ogahiyxonlik yig'inlarini an'anaga kiritish, har yili adib hayoti, faoliyati va merosiga bag'ishlangan ilmiy to'plab chop ettirib borish.

5 Sharqshunoslikdagi dunyoning yetakchi o'quv va ilmiy muassasalari bilan birgalikda ogahiyshunoslik masalalari bo'yicha xalqaro konferensiya, seminar va davra suhbatlari o'tkazish.

6 Yurtimiz va chet ellarda saqlanayotgan Ogahiy asarlari qo'lyozmalarining to'liq tavsifli katalogini tayyorlash, ularni chop etish bilan bog'liq ilmiy loyihalarni amalga oshirish.

7 Ogahiy asarlarining izohli lug'atini tuzish va chop etish bo'yicha ilmiy loyihalarni amalga oshirish.

8 XIX asarda yaratilgan tarixiy va adabiyotshunoslik asarlari asosida Ogahiy hayoti va ijodi bilan bog'liq adibningmukammal ilmiy biografiyasini yaratish.

9 Ogahiy oziqlangan va davom ettirgan turkiy adabiyot ildizlarini tadqiq etish.

10 XIXasrning ikkinchi yarmi va XX asr boshilariga qadar Xorazm adabiy muhitida kechgan jarayonlar va unda Ogahiy ijodning ta'siri, ushbu adabiy muhitda vujudga kelgan izdoshlik an'alarini o'rganish.

11Ogahiy devonining akademik nashrini amalga oshirish.

12Ogahiy tarjima asarlarining nusxalarini to'liq aniqlash, ilmiy o'rganish va nashr qilish.

13Ogahiy tarixiy asarlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish.

14Ogahiy asarlari bo'yicha filologik tadqiqotlarni amalga oshirish.

15 Ogahiy asarlarida singdirilgan g'oyalar va adibning hikmatli so'zlari jamlanganko'p tilli “Ogahiy hikmatlari” kitobini chop etish.

16Ogahiyning hayot va ijod yo'li, asarlari bilan bog'liq ma'lumotlarni qamrab olgan internetda maxsus sayt ochish hamda kengash a'zolarining soha bo'yicha ilmiy ishlarini ushbu saytda joylab borish.

17 Universitet magistraturasidagi “Mumtoz filologiya” va “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik” mutaxassisliklari o'quv jarayoniga ogahiyshunoslik bilan bog'liq tanlov fanlarini kiritish va joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.



18 Yosh o‘qituvchi hamda ilmiy tadqiqotchilarning ogahiyshunoslik yo‘nalishida bajargan tadqiqotlarini muhokama etib borish va tadqiqot ishlarni o‘z vaqtida bajarilishiga ko‘mak berish.

19 Kengash faoliyati bilan tanishtiruvchi materiallarni hamda soha bo‘yicha erishilgan ilmiy natijalarni Respublika va xalqaro nashrlarda va universitetning ilmiy jurnallarida muntazam chop etib borish.

Ogahiyshunoslikni rivojlantirish uchun Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ko‘plab tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bunga misol qilib 2020-yil 9-iyul kuni Xiva shahridagi Ogahiy ijod maktabiga o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori G. Sh. Rixsiyeva boshchiligida universitet ma‘muriyati, professor-o‘qituvchilari tashrif buyurib, Ogahiy ijod maktabining “Iste’dodlar markazi”da ikki ta’lim muassasasi o‘zaro hamkorligining asosiy yo‘nalishlari, amalga oshiriladigan ishlar ko‘lami va ahamiyati muhokama qilindi. Uchrashuv yakunida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori Gulchehra Rixsiyeva va Ogahiy nomidagi ijod maktabi direktori Sarvar Abdullayevlar o‘zaro Hamkorlik shartnomasini imzoladilar. Shartnomaga ko‘ra, birgalikda Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganish va targ‘ib qilishda ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma’rifiy ishlarni yo‘lga qo‘yish, maktab o‘qituvchilari va universitet professor-o‘qituvchilari bilan, shuningdek, yosh ijodkorlarni tarbiyalashda hamkorlikni amalga oshirish, ilmiy maqolalar chop qilish, konferensiya, uchrashuv, ko‘rik-tanlov va “Mahorat darslari”ni tashkil qilish, “Ogahiy hayoti va ijodi-yoshlar tarbiyasi uchun namuna” yo‘nalishidagi yo‘l xaritasida belgilangan ishlarni bajarishda maktab o‘qituvchi va mutaxassislarini jalb qilish va boshqa masalalar bo‘yicha kelishib olindi. Bundan tashqari Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bilan hamkorlikda Ogahiy ijod maktab o‘quvchilari uchun “Ogahiy” ko‘krak nishoni va “Ogahiy” stipendiyasi ta’sis etiladigan buldi. Shuningdek universitet talabalari tomonidan “Ogahiy bu davlat ila sarfarozi o‘lsun”, “Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar tarbiyasi uchun namuna”, “Muhammad Rizo Ogahiy – Sharqning buyuk allomasi”, “Ogahiy merosi – ma’naviyatimiz sarchashmasi” mavzusida adabiy tadbir bo‘lib o‘tdi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) <https://yuz.uz/uz/news/ogahiy-ijodini-organish-boyicha-hamkorlik-bitimi-imzolandi>
- 2) <https://t.me/tsuos/9143>
- 3) <https://ogahiy.tsuos.uz/category/yangilik/>

